



KORXONA MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI BAHOLASH VA TAHLIL QILISH USULLARI

Xudoyshukurov Doston

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxona moliyaviy xavfsizligini baholash va tahlil qilishning zamonaviy usullari o‘rganiladi. Tadqiqotda moliyaviy xavfsizlikni ta’minlashda qo‘llaniladigan asosiy ko‘rsatkichlar, baholash metodologiyalari va tahlil qilishning samarali mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, korxonalarining moliyaviy holatini aniqlash va xavf-xatarlarni minimallashtirish uchun turli usullar, shu jumladan, moliyaviy tahlil, qarz va likvidlik ko‘rsatkichlari, rentabellik tahlili va boshqa iqtisodiy parametrlar tahlil etiladi. Maqola shuningdek, moliyaviy xavfsizlikni ta’minlashning amaliy jihatlari va usullarini yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar va tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: moliyaviy xavfsizlik, korxona, baholash usullari, tahlil, moliyaviy holat, rentabellik, likvidlik, iqtisodiy xavf-xatarlar, moliyaviy tahlil, korxona boshqaruvi

Kirish. Korxonalar moliyaviy xavfsizligi ko‘p jihatdan korxona ixtiyorida qanday va qancha mablag‘ mavjudligi hamda ular korxonaning qaysi yo‘nalishiga kiritilganligiga bog‘liq. Foydalaniyatgan sarmoya yo‘nalish mavqe’iga qarab o‘z va qarz mablag‘lariga ajratiladi. Korxonaning o‘z mablag‘lari o‘zini-o‘zi moliyalash talablari zarurati bilan izohlanadi hamda u korxona mustaqilligining asosi hisoblanadi. Biroq, inobatga olish kerakki, korxona faoliyatini moliyalash o‘z mablag‘lari hisobiga amalga oshirish har doim ham foydali hisoblanmaydi va bu asosan mavsumiy xarakterga ega ishlab chiqarishda o‘z aksini topadi. Bunda ayrim vaqtida bank hisob raqamlarida katta hajmda mablag‘lar yig‘ilib qoladi va aksincha boshqa vaqtida mablag‘larni topib bo‘lmaydi.

Bundan tashqari e’tibor qaratish kerakki, agar moliyaviy resurslar narxi yuqori bo‘lmasa, korxona kredit resurslari uchun to‘lashga nisbatan kiritilgan mablag‘dan yuqori natija erishishni ta’minlashi va qarz mablag‘larini jalb etish esa o‘z mablag‘lar rentabelligi oshishiga olib kelishi mumkin. Ayni damda, korxona mablag‘lari asosan qisqa muddatli majburiyatlar hisobiga shakllangan bo‘lsa, unda korxona moliyaviy holati beqaror bo‘ladi. YA’ni qisqa muddatli sarmoyalardan foydalanishda uzoq muddatli aylanmaga jalb etmaslik va uni o‘z vaqtida qaytarishni nazorat qilishga yo‘naltirilgan doimiy tezkor ishlashni talab etadi. Demak, korxonaning moliyaviy





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



holati o‘z va qarz mablag‘larning optimal muvozanatiga bevosita bog‘liq. Moliyaviy strategiyani to‘g‘ri shakllantirish korxonalar faoliyatini samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Shunday qilib, moliyaviy xavfsizlik korxona faoliyatini moliyalashtirish manbalariga bevosita bog‘liq. Shu munosabat bilan alohida ta’kidlash lozimki, iqtisodiy tizimning eng muhim tarkibiy qismi hisoblangan korxonalarning moliyaviy xavfsizligi mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga erishishda muhim ahamiyatga ega. Chunki, moliyaviy xavfsizlik va unga erishish xo‘jalik yurituvchi subektlar faoliyat yuritish qobiliyatini ta’minlashning garovi hamda uning mustahkam mavqe’ga ega bo‘lishining asosi sifatida xizmat qiladi. Shu nuqtai-nazardan, moliyaviy xavfsizlik, korxonaning o‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi moliyaviy imkoniyatlarini aniqlash muhim iqtisodiy muammolar jumlasiga kiradi.

Korxona faoliyatida moliyaviy xavfsizlikni baholash usullarining chegaralari va ularning butun tizimidan eng samarali foydalanish imkoniyatlari, ko‘rsatkichlar algoritmi va ularni talqin etish, mulkchilik va tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning mezonlarini tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

Ma’lumki, moliyaviy xavfsizlikni baholashning umumiyligini qilingan yagona mezoni hozircha mavjud emas. Bundan tashqari, bir xil iqtisodiy mazmundagi koeffitsiyentlar turli xil nomlarda qo‘llaniladi. Masalan, moliyaviy manbalarning umumiyligini darajasida o‘z manbalarining ulushini tavsiflovchi ko‘rsatkich turlicha nomlanadi. Xususan, mustaqillik koeffitsiyenti (L.V.Donsova, N.A.Nikiforova, I.I.Mazurova, G.V.Savitskaya, O.V.Yefimova), mulkchilik koeffitsiyenti (V.P.Astaxov, I.T.Balabanov, N.A.Rusak), avtonomiya koeffitsiyenti (V.G.Artemenko, V.M.Bellendir, L.T.Gilyarovskaya, M.N.Kreynina, G.P.Gerasimenko, E.A.Markaryan, A.D.Sheremet, R.S.Sayfulin, A.I.Kovalev, V.P.Privalov, L.G.Makarova), xususiy sarmoyani jamlash koeffitsiyenti (V.V.Kovalev).

Shunday qilib, koeffitsiyentlarni nomlash uchun yagona standartlar mavjud emas, shuning uchun ularning har xil ma’no kasb etishi moliyaviy xavfsizlikni tahlil qilishning taklif etilayotgan uslubiyotlarini taqqoslashni murakkablashtiradi.

Korxonalarning moliyaviy xavfsizligiga nisbatan mavjud fikrlar va uni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar nuqtai-nazaridan tahlil qilgan holda ikkita yondashuvni ajratish mumkin.

Birinchi yondashuv sobiq Ittifoq davlatlari iqtisodiyotida yuzaga kelgan bo‘lib, unda korxonaning to‘lov qobiliyati va uning o‘z aylanma mablag‘lari bilan ta’milanganligi, moliyaviy xavfsizlikning asosiy mezoni sifatida o‘rganiladi. Biroq, ushbu ko‘rsatkichlar korxonaning moliyaviy holatini to‘liq tavsiflay olmaydi, chunki





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



ma’lum sanaga – davr boshi va yakuniga ko‘ra balans bo‘yicha hisoblab chiqiladi va shuning uchun ushbu vaqt mobaynida katta o‘zgarishlarga duch kelishi mumkin. Moliyaviy xavfsizlikka nisbatan MDH davlatlari iqtisodchilarining bunday fikri, bizningcha, to‘g‘ri hisoblanadi. Chunki uzoq vaqt mobaynida sobiq Ittifoq davrida qurilgan korxonalar davlat tomonidan rasman tashkil etilgan barqaror sharoitda faoliyat yuritgan va uzoq muddatli rejada ularga bankrotlik tahdid solinmagan.

Ikkinci yondashuv G‘arb iqtisodiy amaliyotida rivojlangan bo‘lib, bunda korxonaning qarz va o‘z mablag‘larining nisbati bilan bog‘liq (kreditorlardan) moliyaviy mustaqilligi, uning moliyaviy xavfsizligining asosiy mezoni hisoblanadi. Ushbu fikr ham bir tomonlama xususiyatga ega, chunki korxonaning moliyaviy holati va uni rivojlantirish istiqbollarini to‘liq hisobga olmaydi. O‘zbekistonidagi sanoat korxonalarining hozirgi xo‘jalik yuritish amaliyoti ko‘rsatmoqdaki, hatto aktivlar tarkibida qarz mablag‘lariga ega bo‘lmagan holda, ya’ni moliyaviy xavfsizlikning ijobjiy ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan holda ham og‘ir moliyaviy holatga tushib qolish mumkin.

Korxonalar moliyaviy holatini tahlil qilishda iqtisodchi-olim, professor E.A.Akramov moliyaviy mustahkamlik tushunchasi va uning ko‘rsatkichlarini tavsiya etgan va unga ta’sir etuvchi omillarni asoslab bergan. Shuningdek, u moliyaviy xavfsizlik toifasi korxonaning moliyaviy holatini zaruriy bir xil darajada turishi va pasaymasligini ifodalovchi ko‘rsatkich ekanligini ta’kidlaydi.

Professor T.S.Malikovning fikriga ko‘ra, “xo‘jalik yurituvchi subektlarning moliyaviy xavfsizligini umumiyligi (avtonomiya koeffitsiyenti, qarz kapitalining konsertratsiyalashuv koeffitsiyenti, qarz va o‘z mablag‘larining nisbati koeffitsiyenti) va nisbiy ko‘rsatkichlar (zaxira va xarajatlarning o‘z kapitali bilan ta’minlanganlik koeffitsiyenti, moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti, o‘z kapitalining manyovrlilik koeffitsiyenti) ifodalaydi”.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, taklif etilayotgan moliyaviy xavfsizlikni tavsiflovchi ko‘rsatkichlarning xilma-xilligi, ularni hisoblab chiqishning turli algoritmlari, mezonlari, hozirgacha korxonaning moliyaviy xavfsizligini tahlil qilishning yagona uslubiyati ishlab chiqilmagan, degan xulosaga kelish mumkin.

Iqtisodchi-olimlar M.Q.Pardayev va B.I.Isroilov moliyaviy baqarorlikni korxona o‘z mablag‘lari va barcha mablag‘larning nisbati sifatida ifodalab, moliyaviy xavfsizlik ko‘rsatkichlarini quyidagi guruhlarga ajratadilar:

- o‘z mablag‘lar (xususiy kapital) bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar;
- chetdan jalb etilgan mablag‘lar (kapital) bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar;
- harakatdagi mablag‘lar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar;
- asosiy vositalar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar;





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATION G'ÖYALAR



- aylanma mablag‘lar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar”.

A.M.Ajluni “moliyaviy xavfsizlikning barcha koeffitsiyentlarini aylanma va asosiy vositalarning holatini belgilab beruvchi ko‘rsatkichlar guruhiba bo‘ladi”.

Boshqa mualliflar moliyaviy xavfsizlik koeffitsiyentlarini umumiyligini ko‘rsatgan holda, ularni tasniflamaydi.

Jumladan, V.I.Romanchin va I.V.Skoblyakova “Moliyaviy xavfsizlikka sarmoya tarkibi ko‘rsatkichlari; aylanma va asosiy sarmoyalar holatining ko‘rsatkichlari; kreditlar bo‘yicha foizlar to‘lash qobiliyati va moliyaviy xavfsizlik zaxirasini tavsiflaydi”, deb hisoblaganlar.

Ushbu masalaga nisbatan D.Bell o‘zini-o‘zi moliyalash koeffitsiyentini ham hisoblab chiqishni taklif etadi .

I.D.Mandel barqaror o‘sish koeffitsiyentini va likvidlilik, moliyaviy mustaqillik, o‘z aylanma mablag‘lari bilan ta’milanganlik, aylanuvchanlik va rentabellik ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oluvchi uning omillarga asoslangan modelini ko‘rib chiqadi.

T.P.Karlin moliyaviy xavfsizlikni baholash uchun sarmoya tarkibining o‘zgarishini uning joylashuvi va hosil bo‘lish manbalari; sarmoyadan foydalanish samaradorligi va intensivligi; to‘lov qobiliyati va kredit qobiliyati; moliyaviy xavfsizlik zaxirasi bo‘yicha tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanadi.

YE.S.Stoyanovaning fikricha, likvidlilik, faol ishbilarmonlik, resurslardan samarali foydalanish, sarmoya tarkibi va operatsion tahlil asosidagi koeffitsiyentlar “Moliyaviy xavfsizlik”ning eng muhim koeffitsiyentlari hisoblanadi. Fikrimizcha, YE.S.Stoyanova “Moliyaviy xavfsizlik”ning koeffitsiyentlarini taklif etishda korxonalarning zahiralari va ularni shakllantirish manbalari bilan ta’milanganligi ko‘rsatkichlarini nazardan chetda qoldirgan.

L.V.Donsova va N.A.Nikiforovalar “Ko‘rsatkichlar tizimi va ularning ballardagi reyting bahosini, ya’ni moliyaviy xavfsizlikning integral ball bahosini taklif etdilar”.

Korxonalar moliyaviy barqarorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni ilmiy asoslash va uni hisoblashda korxonaning o‘ziga xos xususiyatlari, ya’ni uning qaysi tarmoqda faoliyat yuritishi va ixtisosligiga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq .

Yuqorida keltirilgan talqinlardan xulosa qilish mumkinki, moliyaviy xavfsizlikni ilmiy asoslash va uning ko‘rsatkichlarini tasniflash uchun asosan o‘rganilayotgan obekt (soha va tarmoq)ning o‘ziga xos xususiyatlari va ixtisosligidan kelib chiqqan holda yondashishni talab etadi.

Mamlakatni modernizatsiyalash jarayonida korxonalarda cheklangan moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish ular xavfsizligini tiklash va ta’milashning istiqbolli usullaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OVALAR



xavfsizlik va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish o‘rtasidagi bog‘liqlik va o‘zaro munosabat iqtisodiy tushuncha sifatida qiziqish uyg‘otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Isakov A. (2018). *Korxona moliyaviy xavfsizligi: nazariy asoslar va amaliyot*. Toshkent: "Iqtisodiyot" nashriyoti.
2. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2020). *Korxona moliyaviy holatini tahlil qilish va xavfsizlikni ta’minlash metodlari*. Toshkent: Moliya vazirligi nashriyoti.
3. Sharipov D.T. (2019). “Korxona moliyaviy xavfsizligini baholashda rentabellik ko‘rsatkichlari va tahlil metodlari”. *Iqtisodiy tahlil* jurnali, 12(3), 45–53.
4. World Bank. (2021). *Financial Risk Management and Corporate Safety: Global Insights*. Washington, D.C.: World Bank Publications.
5. Khamidov M. (2017). *Korxona moliyaviy xavfsizligi va uni boshqarishning zamonaviy usullari*. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti.
6. Bekmuratov S.X. (2021). “Korxonalarda moliyaviy xavf-xatarlarni baholash va tahlil qilishning yangi usullari”. *Iqtisodiy va moliyaviy tahlil* jurnali, 6(2), 27–34.
7. National Association of Corporate Directors (NACD). (2020). *Corporate Financial Safety and Risk Assessment*. Washington, D.C.: NACD Publications.

